ASOSIY NATIJALAR VA OLINGAN SABOQLAR BO'YICHA YAKUNIY MAVZUVIY HISOBOT (2020-2022)

TOSHKENT
2022

BMTTD/FCDOning “Markaziy Osiyoda iqlim xavfsizligi bo‘yicha siyosiy harakatlar, I va II bosqichlar” loyihasi

Ushbu nashrda bayon etilgan fikr va xulosalar faqat mualliflarning fikrlarini ifodalaydi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining, shu jumladan BMTTD yoki BMTga a’zo mamlakatlarning rasmiy qarashlarini aks ettirmaydi.

BMTTD dunyoning 170 ga yaqin mamlakat va hududlarida turmush darajasini yaxshilash, tengsizliklarni kamaytirish va inklyuziv jamiyatlar qurishga yordam berish uchun ishlaydi. Biz hukumatlarga rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda, hamkorlikni kengaytirishda, institutsional salohiyatni oshirishda va rivojlanish natijalarini qo‘llab-quvvatlash uchun mamlakat barqarorligini oshirishda yordam beramiz.

BMT Taraqqiyot dasturining O‘zbekistonga ko‘rsatayotgan yordami o‘zaro bog‘liq umumiy maqsadlarga erishishga qaratilgan: barqaror iqtisodiy rivojlanish, samarali boshqaruv, iqlim o‘zgarishiga moslashish va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi islohotlarni jadallashtirishda hukumatni qo‘llab-quvvatlash.

© BMTTD, 2022 (www.uz.undp.org)

Mundarija

Qisqartmalar ro’yxati....4
Kirish....5
Loyiha doirasida mintaqaviy hamkorlik....7
Iqlim o'zgarishi ta'siri va iqlim xavflari bo'yicha tadqiqotlar va o’rganishlar....9
Parij bitimi, MMBH, BMT IO’DK va TK26 natijalari doirasidagi milliy hamkorlik....11
Iqlim bo'yicha ta'lim berish va yoshlarni jalb qilish....13
Xususiy tarmoq ishtiroki....18
Aholi xabardorligini oshirish kampaniyasi va ommaviy axborot vositalari....20
Gender namoyondaligi....22
Loyihani amalga oshirishdan olingan saboqlar....23
Loyiha natijalarining barqarorligi va ularning ta'siri....25
Ilova. Muvaffaqiyat misoli: Yoshlarni hayot davomida iqlim o'zgarishi bo'yicha harakatlarga jalb qilish....27

Qisqartmalar ro’yxati

CAREC	Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi
TK	Tomonlar konferensiyasi
TK26	26-Tomonlar konferensiyasi
CSSF	Mojarolarning oldini olish, barqarorlik va xavfsizlik fondi
FCDO	Tashqi ishlar, hamdo’stlik va taraqqiyot ofisi
GCF	Yashil iqlim jamg'armasi
YaIM	Yalpi ichki mahsulot
IG	Issiqxona gazlari
IDU	Xalqaro raqamli universiteti
IPCC	Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi
MIT	Massachusets texnologiya instituti
MHT	Monitoring, hisobot va tekshirish
MMR	Milliy moslashish rejasi
MMBH	Milliy miqyosda belgilanadigan hissa
MMBH2	2- Milliy miqyosda belgilanadigan hissa
UNFCCC	BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi
BMTTD	Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot Dasturi

Kirish

BMTTD/FCDOning Markaziy Osiyoda iqlim xavfsizligi bo‘yicha mintaqaviy siyosati loyihasi iqlim o‘zgarishi bo‘yicha yanada kuchliroq va barqaror harakatlarni qo‘llab-quvvatlash va aholining xabardorligini oshirish orqali Markaziy Osiyoda iqlim xavfsizligi siyosati harakatlarini kuchaytirishga qaratilgan. Loyiha Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekistonga qaratilgan bo‘lib, BMTTDning Qirg‘izistondagi vakolatxonasi tomonidan Buyuk Britaniya Tashqi ishlar, hamdo’stlik va taraqqiyot ofisi (FCDO) bilan yaqin hamkorlikda boshqariladi. Loyiha FCDOning mintaqaviy Iqlim dasturi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan keng qamrovli sa’i-harakatning bir qismi bo'lib, TK26 bo'yicha kuchliroq majburiyatlarga hissa qo'shdi.

Loyiha ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich 2020-2021 yillarda, ikkinchi bosqich esa 2021-2022 yillarda o‘tkazildi. Ushbu hujjat yakuniy mavzuviy hisobot bo‘lib, unda loyihaning ikki bosqichda erishilgan natijalari, loyihani amalga oshirishdan olingan saboqlar hamda iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va aholining xabardorligini oshirish bo'yicha izchil harakatlarni qo‘llab-quvvatlash orqali Markaziy Osiyoda iqlim xavfsizligi bo’yicha siyosiy harakatlarni kuchaytirish natijalarning ta’siri va barqarorligi aks ettirilgan.

I bosqichda faoliyat uchta asosiy natijaga qaratilgan:

- Dalillarga asoslangan va ambitsiyali iqlim siyosatini kuchaytirish bo'yicha tadqiqotlar;
- Parij bitimi, MMBH va BMT IO’DK doirasida hamkorlikni kengaytirish;
- Ta'lim va jamoatchilikni xabardor qilish.

II bosqichda faoliyat beshta asosiy natijaga qaratilgan:

- Iqlim bo'yicha oqilona siyosatni ishlab chiqishni ta'minlash maqsadida mamlakatdagi qaror qabul qiluvchilar uchun iqlim o'zgarishi va uning ijtimoiy hamda iqtisodiy ta'siri bo'yicha kengaytirilgan, maqsadli va dolzarb, dalillarga asoslangan ma'lumotlarni to’plash;
- Parij bitimi va TK26 natijalariga hamohang milliy ishtirokni kengaytirish;
- Hukumat, jurnalistlar, yoshlar va jamoatchilik tomonidan iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha harakatlarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish;
- Iqlim moliyasini jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish;
- Iqlim siyosatini ishlab chiqishda yoshlar ishtirokini oshirish.

Iqlim kun tartibining murakkab xususiyatini hisobga olgan holda, loyiha xalqaro tashkilotlar, iqlim bo'yicha ekspert va tadqiqot hamjamiyatlari, jalb qilingan mamlakatlarning hukumat tashkilotlari, xususiy tarmoq vakillari va yoshlar hamjamiyatlari kabi turli manfaatdor tomonlar guruhlarini jalb qildi. Loyiha tomonidan tashkil etilgan faoliyat va tadbirlar jamoatchilikni xabardor qilish bo'yicha marketing kampaniyalari bilan qo'llab-quvvatlandi va loyihaning ulkan natijalarini mustahkamlashga yordam berdi.

2021-yil noyabr oyida Glazgoda bo‘lib o‘tgan TK26 konferensiyasi va uning natijalari loyihaning turli tadbirlarining butun ko‘lami diqqat markazida bo‘ldi. Shu sababli, loyihaning

bosqichma-bosqichligi TKdan oldingi va TKdan keyingi tadbirlarni o'z ichiga oladi. Loyihaning I bosqichi maqsadli mamlakatlarga TK26 ga o‘z hissalarini tayyorlashda ko‘rsatilayotgan yordamga e’tibor qaratgan bo‘lsa, II bosqich O‘zbekiston tomonidan TK26 da e’lon qilingan yanada ulug‘vor Milliy miqyosda belgilanadigan hissa (MMBH2) ikkinchi avlodini amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha jadallashtirilgan harakatlarga qaratilgan.

Marketing ko’magi, shuningdek, aholining xabardorligini oshirish va iqlim bo'yicha mahalliy chora-tadbirlarni ilgari surishda muhim rol o'ynadi. Ushbu tarkibiy qism doirasida loyiha o'z faoliyatiga yoshlarni jalb qilishga qaratilgan.

Loyiha yakuniy maqsadlariga natijalarning barqarorligini ta'minlaydigan va maqsadli mamlakatlarni iqlim o'zgarishi bo'yicha harakatlarni mamlakatga xos, ijtimoiy mas'uliyatli va majburiyatli bo'lgan eng to'g'ri yo'llar bilan kuchaytirishga undaydigan tegishli strategiya yordamida erishilishi kerak va shu orqali iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda global sa'y-harakatlarga munosib hissa qo’shmoq lozim.

Loyiha turli tadbirlar, konferensiyalar, fikr-mulohazalar olish sessiyalari, davra suhbatlari, tadqiqotlar, so'rovlar, o'quv safarlari va hisobotlar orqali belgilangan natijalarga erisha oldi. Bularning barchasi ommaviy axborot vositalarining xabardorligini oshirish va jamoaviy harakatni kuchaytirishga qaratilgan kampaniya tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi. Hisobotning ushbu qismida erishilgan asosiy natijalar va ularning Markaziy Osiyoda iqlim xavfsizligi bo‘yicha siyosiy harakatlarni faollashtirish bo‘yicha loyihaning asosiy maqsadiga erishishga qo‘shgan hissasi tavsiflanadi.

Loyiha natijalarini amalga oshirish uchun tanlangan tadqiqot asosidagi harakatlar, manfaatdor tomonlarning kengroq ishtiroki va axborotni tarqatishga asoslangan umumiy strategiya muvaffaqiyatli bo'ldi va kutilgan natijalarga erishdi.

Loyiha doirasida mintaqaviy hamkorlik

Loyiha Markaziy Osiyoning uchta davlati: Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekistonni qamrab oldi. Loyiha guruhlari va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi hamkorlik loyihaning barcha bosqichlarida amalga oshirildi va belgilangan natijalarga erishish uchun yaxlit, ammo yo'naltirilgan yondashuvni ta'minladi. Xalqaro ekspertlarni jalb qilish loyiha darajasida uch mamlakat ehtiyojlarini qondirish uchun amalga oshirildi. Mutaxassislar TK26 oldidan sa'y-harakatlarni tez sur'atlar bilan tezlashtirishga harakat qildilar va Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekistonning Parij bitimini amalga oshirish bo'yicha majburiyatlariga muvofiq davlat tomonidan moliyalashtiriladigan keyingi harakatlar va mintaqaviy hamkorlik uchun asos yaratdilar.



Uch mamlakat, ular orasidagi farqlarga qaramay, bir qator umumiy xususiyatlarga ega. Tegishli tadqiqotlar o‘tkazish hamda har bir alohida holatda aniqlangan o‘xshashlik va farqlarni hisobga olgan holda salohiyatni oshirish va o‘rganish strategiyasini ishlab chiqish iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish sohasida mamlakatlar o‘rtasida bilim va tajriba almashish hamda hamkorlikni kuchaytirishda muhim rol o‘ynadi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, har uch mamlakatda ham qishloq xo'jaligi, energetika va suv resurslari eng ko'p tahdid ostida bo'lgan tarmoqlardir, ayollar, ayniqsa qishloq hududlardagi ayollar, nomutanosib ravishda ko’proq aziyat chekmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional omillar Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishiga o’ta ta’sirlanuvchanligini oshiradi.

Loyihaning I bosqichining asosiy yutug‘i TK26 bo‘yicha uch mamlakatga yanada kuchli, erishilishi mumkin bo‘lgan va barqaror majburiyatlarni o‘rnatishga yordam berish bo‘yicha birlashtirilgan sa’y-harakatlar edi. Mamlakatlar o'zlarining kengaytirilgan majburiyatlarini taqdim etdilar va ularni Glazgoda ommaga e'lon qildilar, bu jahon hamjamiyati tomonidan yaxshi qabul qilindi va mamlakatlar o'zlarining ulug’vor MMBHlari uchun maqtovga sazovor bo'ldilar. O‘zbekiston Respublikasi 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlari tashlamalarini 2010 yilga nisbatan 35 foizga kamaytirishni maqsad qilgani haqida ma’lum qildi.

Loyiha mintaqaviy va milliy iqlim harakatiga hissa qo'shdi. Loyiha TK26 dan keyingi harakatlarni amalga oshirish imkonini berdi va Markaziy Osiyoda TK26 dan keyingi zarur harakatlar va iqlim sohasidagi hamkorlik uchun asos yaratishga yordam berdi. Loyiha tomonidan amalga oshirilgan o'zgarishlar har bir mamlakatga xos bo'lgan, ammo umumiy mintaqaviy harakatlar bilan yaxshi uyg’unlashgan.

Manfaatdor tomonlar ishtirokini tanlash milliy darajada bo'lib o'tdi va davlat hamda nodavlat tashkilotlari, davlat va xususiy kompaniyalar, vazirlik va idoralar, universitetlar, yoshlar uyushmalari va turli jamg’armalarni o'z ichiga oldi. Mintaqaviy darajada loyihada Markaziy Osiyo Mintaqaviy ekologik markazi (MOMEM) ishtirok etdi. Ularning ishtiroki ko'p qirrali va ikki darajada bo'ldi: milliy va mintaqaviy. Bir qator konferensiyalar, tadbirlar, fikr-mulohazalar almashish sessiyalari, o'quv tadbirlari va tadqiqotlar maksimal ta'sir ko'rsatish uchun butun loyiha davomida manfaatdor tomonlarni jalb qildi.

Iqlim o'zgarishi ta'siri va iqlim xavflari bo'yicha tadqiqotlar va o’rganishlar

Loyiha bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni tayyorlashda xalqaro va mahalliy ekspertlar, shuningdek, O‘zbekiston Gidrometeorologiya xizmati markazi (O‘zgidromet) kabi milliy hamkor davlat idoralari va boshqa tegishli davlat idoralari mutaxassislaridan iborat guruhlar o‘z hissalarini qo‘shdilar. Tadqiqot natijalari tavsiya etilgan harakatlar hamjamiyatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va amalga oshirilishiga ishonch hosil qilish uchun bir qator so'rovlar o’tkazish hamda fikr-mulohazalarni olish orqali kengroq manfaatdor tomonlar hamjamiyatida tasdiqlash jarayonidan o'tdi. Tashkil etilgan tadbirlar ularning qamrovini kengaytirish va tavsiya etilgan harakatlar bo'yicha hamjamiyatlarni har tomonlama tasavvurga ega bo’lishi uchun marketing kampaniyalari tomonlaridan qo'llab-quvvatlandi.

2021-yilda iqlim o‘zgarishiga moslashish va uning oqibatlarini yumshatish bo‘yicha davlatlar tomonidan qabul qilingan majburiyatlar milliy iqtisodiyot, infratuzilmani rivojlantirish va aholining ijtimoiy farovonligiga uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatishini hisobga olgan holda, O‘zbekistonning 2021 yildagi Parij bitimi doirasida issiqxona gazlari (IG) tashlamalarini kamaytirish uchun yangi majburiyatlarini shakllantirish bo’yicha takliflarni ishlab chiqish maqsadida loyiha doirasida tadqiqot olib borilgan. Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda kam uglerodli rivojlanish uchun muhim bo‘lgan uchta tarmoq – energetika, qishloq va suv xo‘jaligi tarmoqlarini modellashtirish va baholash natijalarini taqdim etadi.

Natijalar ikki jihatdan ko‘rib chiqildi: “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning milliy ijtimoiy yo‘naltirilgan modelini shakllantirish nuqtai nazaridan va shu bilan birga, issiqxona gazlarini kamaytirish bo‘yicha milliy darajada qabul qilingan xalqaro majburiyatlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan. Shuningdek, ushbu tarmoqlarning Markaziy Osiyo mintaqasi uchun umumiy ahamiyati va tegishli muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlar zarurligi ko‘rib chiqildi.

Kam uglerodli rivojlanish traektoriyasiga o‘tishda eng katta muvaffaqiyatga erishgan rivojlanayotgan mamlakatlar ijtimoiy taraqqiyotni mustahkamlash, bandlikni kengaytirish va o’z fuqarolarining o‘rtacha daromadlarini oshirishga xizmat qilgan iqlim siyosati modelini shakllantirishga muvaffaq bo‘ldilar. O‘zbekiston uchun bunday modelni izlashda natijalar kam uglerodli iqtisodiyotga o‘tish uchun faqat yashil texnologiyalarga katta hajmdagi sarmoya kiritishning o‘zi yetarli emasligini ko‘rsatmoqda. Institutlarni to‘g‘ri mustahkamlamasdan, makroiqtisodiy muhitni yaxshilamasdan, iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlarini o‘zgartirmasdan, tabiiy resurslarga bosimni kamaytirishga qaratilgan rivojlanish siyosatisiz, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilmasdan turib yashil loyihalarga investitsiyalar kiritish samarasiz bo‘ladi. Natijada, faol iqlim siyosati asosan energetika, qishloq va suv xo'jaligi sohalarida shakllantirilgan.

Bundan tashqari, iqlim o‘zgarishi bo‘yicha samarali va keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish yo‘llari va imkoniyatlarini tushunish, MMBHlarni kengaytirish va samarali amalga oshirish, shuningdek, BMT IO’DK va Parij bitimi talablariga muvofiqligini tushunish maqsadida “O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi bo‘yicha harakatlarning siyosiy-iqtisodiy tahlili” tayyorlandi. Tadqiqot mamlakatning iqlim bilan bog'liq hujjatlar, qoidalar, statistik ma'lumotlar va tegishli hisobotlarini nazariy ko'rib chiqish orqali to'plangan miqdoriy va sifat ma'lumotlarini tahlil qilishga asoslangan. Tahlil natijasida issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirish,

Tadqiqot natijalarini muhokama qilish

iqlim o‘zgarishiga moslashish, shuningdek, iqlimni moliyalashtirish va shaffoflik tizimiga qo‘yiladigan talablar bo‘yicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

2022-yilda Buyuk Britaniyaning Xorijiy taraqqiyot instituti (ODI) va milliy ekspertlar o‘zgaruvchan dunyoda Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston uchun iqlim prognozlari va energetika infratuzilmasi uchun iqlim xavflarini boshqarish ta’siri bo‘yicha tadqiqot o‘tkazdi. Tadqiqotga xalqaro va milliy ekspertlar va tegishli mamlakatlardagi hukumat amaldorlari bilan maslahatlashuvlarning turli bosqichlari yordam berdi, natijada ikkita nashr chop etildi. Birinchisi, mavjud va rejalashtirilgan ishlab chiqarish va uzatish infratuzilmasi uchun iqlim xavfi prognozlarini tahlil qilish natijalarini taqdim etadi va energiya infratuzilmasi uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik xavflarni kamaytirish bo'yicha mamlakatga xos eng yaxshi amaliyot tavsiyalarini beradi. Ikkinchisi nol uglerodli iqtisodiyotga o'tish imkoniyatlari va qo'shimcha afzalliklarini ifodalaydi, iqtisodiy va energiyaga bo’lgan ehtiyojlarining umumiy ko'rinishini beradi, qayta tiklanadigan energiya manbalarini ko'proq joriy etish imkoniyatlari va birgalikda foydalarini baholaydi, shuningdek, mamlakatga xos muammolar va ularni yengish maqsadida uch mamlakatning har biri uchun potensial imkoniyatlarni tavsiflaydi.

Parij bitimi, MMBH, BMT IO'DK va TK26 natijalari doirasidagi milliy hamkorlik

Loyihaning 2021-yil davomida amalga oshirilgan birinchi bosqichi doirasida noyabr oyida Glazgo shahrida bo‘lib o‘tgan TK26 ga tayyorgarlik ko‘rishda O‘zbekiston hukumatini qo‘llab-quvvatlashga asosiy e’tibor qaratildi. Bu yil COVID pandemiyasi sababli tadbirlarning aksariyati onlayn tarzda o'tkazildi. Fevral oyida O‘zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazida (O‘zgidromet) tarmoq vazirliklari, idoralari va jamoat tashkilotlari vakillari uchun iqlim diplomatiyasi bo‘yicha milliy kirish treningi, oktyabr oyida esa TK26 da bo’lib o’tadigan Yashil rivojlanish bo'yicha sayd iventga tayyorgarlik ko’rish bo‘yicha Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi uchun onlayn sessiya bo‘lib o‘tdi. 2021-yil 1-noyabrda “O‘zbekiston xalqi va hukumati iqlim inqiroziga birgalikda qarshi kurashish choralarini ko‘rmoqda” nomli maqola tayyorlandi va chop etildi.

FCDO mablag'lari hisobidan TK26 da ishtirok etish uchun O'zbekiston delegatsiyasining 7 nafar a'zosiga moliyaviy yordam ko'rsatildi. TK26 davomida O‘zbekiston milliy delegatsiyasiga Markaziy Osiyo said iventlari platformasi doirasida quyidagi mavzularda tadbirlar olib borish uchun onlayn mavzuviy yordam ko‘rsatildi:

- “O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo‘lgan iqlim o‘zgarishi strategiyasi va iqlim o‘zgarishiga moslashish” sessiyasi (O‘zgidromet), 2021-yil 4-noyabr;
- “O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishi va bioxilma-xillik” sessiyasi (Davlat ekologiya qo‘mitasi), 2021-yil 8-noyabr;
- “O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” sessiyasi (Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligi), 2021-yil 9-noyabr;
- “Orolbo‘yi mintaqasini barqaror rivojlantirish” sessiyasi (Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi), 2021-yil 9-noyabr;
- “O’zbekistonning ikkinchi MMBHsi” sessiyasi (O‘zgidromet), 2021-yil 10-noyabr.

2021-yil 2-dekabrda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag’allikni qisqartirish vazirligining TK26 dan keyingi (onlayn) yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv yakunlari bo‘yicha BMTTDning mamlakatdagi vakolatxonasiga “yashil rivojlanish” tizimini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, jumladan, nol uglerodli iqtisodiyotni rivojlantirishga erishish uchun issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatli maqsadlarga oid navbatdagi tahlillarni qo‘llab-quvvatlash taklif etildi. BMTTD vakolatxonasi so'ralgan yordamni maxsus loyiha mexanizmi orqali taqdim etadi. O‘zbekiston atrof-muhitini hisobga olgan holda TK26 ning asosiy yakuniy natijalari bo‘yicha qisqacha ma’lumot 2021-yil 6-dekabrda ishlab chiqilgan va davlat idoralariga tarqatilgan.

II bosqich O‘zbekiston Respublikasi tomonidan TK26 da e’lon qilingan majburiyatlarning bajarilishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi. BMT IO’DK va Parij bitimi talablariga muvofiq Qirg‘iziston va O‘zbekistonda MHT milliy tizimini yaratish konsepsiyasi va yo‘l xaritasi xalqaro konsultantlar ko‘magida va mavjud milliy ma’lumotlar, shuningdek, ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqildi. Konsepsiya IG tashlamalarini baholashning mavjud uslubiyatlarini ko‘rib chiqish, xususiy tarmoq kompaniyalari o‘rtasida milliy so‘rov o‘tkazish

va manfaatdor tomonlar bilan IG tashlamalarini baholash bo‘yicha sessiyalar davomida olingan fikr-mulohazalar natijalariga asoslandi. Natijalar O‘zbekistondagi alohida korxona va kompaniyalar darajasida IG tashlamalarining MHT tizimini yaratish asosli ekanini ko’rsatdi.

Kichik va o’rta korhonalar hamda xususiy kompaniyalar chiqarayotgan uglerod miqdorini baholash uslubiyati iqlim bo'yicha Parij bitimi doirasida MMBH2 ni amalga oshirishga asoslangan edi. To'g'ridan-to'g'ri yoqilg'ining yonishi natijasida karbonat angidrid tashlamalarini hisoblash uslubiyati tajriba tariqasida tanlangan edi, chunki bunday tashlamalar mamlakatning aksariyat sanoat korxonalarida keng tarqalgan. Ushbu ishning maqsadi issiqxona gazlari tashlamalarining milliy inventarizatsiyasini tayyorlash bo‘yicha ko‘p yillik tajribaga asoslanib, yoqilg‘i yonishi natijasida karbonat angidrid tashlamalarini hisoblashning xalqaro uslubiyatini O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishdan iborat edi. Ishlab chiqilgan uslubiyat milliy kadastr uslubiyatiga mos kelishiga va MHT milliy tizimi doirasida yakka tartibdagi korxona o'zining IG tashlamalarini baholash uchun qo'llanilishiga ishonch hosil qilish muhim edi.

O‘zbekiston 2030-yilga borib YaIM birligiga to‘g‘ri keladigan issiqxona gazlarining solishtirma tashlamalarini 2010-yilgi darajadan 35 foizga kamaytirish niyatida. Energetika tarmoq’i umumiy issiqxona gazlari tashlamalarining eng katta manbai (76,3%) hisoblanadi. XVJ hisob-kitoblariga ko‘ra, 2020-yilda O‘zbekistonda qazib olinadigan yoqilg‘i subsidiyalari 12659,6 million dollarni yoki YaIMning 21,5 foizini tashkil qilgan. Subsidiyalarning aksariyati (85%) yashirin, faqat bir qismi (15%) ochiq. O‘zbekiston Respublikasi hukumati Milliy miqyosda belgilanadigan hissa (MMBH)si maqsadlariga erishish uchun O‘zbekistonda qazib olinadigan yoqilg‘i subsidiyalarini isloh qilish tarafdori. Shu munosabat bilan Belarusda qazib olinadigan yoqilg‘i subsidiyalarini qisqartirish tendensiyalari va/yoki joriy sa’y-harakatlarni inobatga olgan holda va xalqaro maslahatchilar ko’magida O‘zbekiston sharoitiga to’g’ri keladigan tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu tavsiyalar qazib olinadigan yoqilg‘i uchun ajratiladigan subsidiyalarni qisqartirish va buning o’rniga mab’ag’larni O‘zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya sohasini rivojlantirishga yo‘naltirish afzalliklarini namoyish etadi.

2022-yilda milliy hukumatlarning TK arxitekturasi bo'yicha bilimlarini oshirish va bo'lajak 2022-yil noyabr oyida Sharm El-Shayxda (Misr) bo’lib o’tadigan TK27 ga tayyorgarlik ko'rish maqsadida qo'shimcha tadbirlar rejalashtirilgan. Energetika vazirligi uchun ikkita seminar tayyorlanib, o'tkazildi, chunki energetika tarmog’i issiqxona gazlarining eng katta chiqaruvchisidir, lekin ushbu tarmoq ayni paytda yashil energiyani ishlab chiqarish uchun quyosh elektr stansiyalari va shamol turbinalari parklarini qurish bo'yicha bir qator investitsiya loyihalarini amalga oshiradi.

Bundan tashqari, Parij bitimi chinakam natijalar berayotgani TK26 konferensiyasida yaqqol namoyish etildi. Shu sababli, TK27 odamlarni va sayyorani, ayniqsa iqlim inqirozining oldingi saflarida bo'lganlarni himoya qiladigan ulkan natijaga erishish uchun o’tkazilishi juda muhim bo'ladi. Parij bitimi maqsadlariga erishish uchun eng yirik emitentlar ambitsiyalarni oshirishi lozim va joylarda harakat qilish muhimdir. Iqlim o‘zgarishi va barqaror rivojlanish bo‘yicha asosiy milliy hamkorlarni qo‘llab-quvvatlash, BMT IO’DKning asosiy natijalari bo‘yicha global muhokamalarni energetika, iqlim o’zgarishi ta’sirini yumshatish, uning oqibatlariga moslashish uchun salohiyatni oshirish va O‘zbekiston milliy delegatlarini tayyorlash kabi asosiy masalalarni mahalliy dasturlar bilan bog‘lash maqsadida, 2022-yil iyun oyida bo‘lib o‘tgan BMT IO’DKning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Bonn konferensiyasi va bo‘lajak TK27 uchun kutilayotgan kun tartibi O‘zbekistonning atrof-muhit holatini hisobga olgan holda ixcham shaklda ishlab chiqilgan va mas’ul milliy idoralar tomonidan taqdim etilgan.

Iqlim bo'yicha ta'lim berish va yoshlarni jalb qilish

Toshkent va Urganch shaharlarida iqlim o‘zgarishi muammolariga qiziquvchi va ularni hal etishga o‘z hissasini qo‘shishga intilayotgan talabalar uchun respublika tadbirlari, jumladan, Massachusets texnologiya instituti tomonidan ishlab chiqilgan uslubiyat bo‘yicha “Jahon iqlimi” tadbiri o‘tkazildi.

Loyihaning 2022-yilgi ikkinchi bosqichi doirasida O‘zbekistonning turli universitetlari talabalari ikkita mintaqaviy va sakkizta milliy tadbirda, jumladan, o‘quv safarlari va talabalar konferensiyalarida ishtirok etdilar. Mintaqaviy tadbirlar Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston talabalari ishtirokida bo'lib, ular Iqlim o’zgaraishi bo’yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi (IO’HEG) hisobotlari asosida ishlab chiqilgan “Climate Fresk” uslubiyati yordamida o’tkazildi va iqlim fanini ilmiy bo'lmagan auditoriyaga tushuntirishga qaratilgan. Umuman olganda, O‘zbekistondan 20 dan ortiq talabalar mintaqaviy tadbirlarda ishtirok etishdan bahramand bo‘lishdi.

2022-yil mart oyida bo‘lib o‘tgan “Iqlim o‘zgarishi xaritasi” seminari Xalqaro raqamli universitet (IDU) va TEAM universiteti talabalarini turli iqlim o‘zgarishi muammolari qanday bog‘liqligi va ularni zamonaviy texnologiyalar yordamida qanday hal qilish mumkinligini bilish uchun birlashtirdi. Ishtirokchi talabalar iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va uning tezlashishiga inson faoliyatining hissasini aniqlashga yordam beradigan sabab-ta'sir xaritalarini yaratish ustida ishladilar. Shuningdek, aholining xabardorligini oshirish va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq noqulay ekologik hodisalarga odamlarning yaxshiroq moslashishi uchun mobil va kompyuter ilovalari prototiplari ishlab chiqilgan.

2022-yil aprel oyida Toshkentda Café Scientifique’ formatida O‘zbekiston Volontyorlari uyushmasi a’zolari va iqlim o‘zgarishi bo‘yicha ekspertlarning uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Iqlim

o'zgarishining ta'siri, uni yumshatish va uning oqibatlariga moslashishning mumkin bo'lgan usullari, asosiy sabablar va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha tegishli faoliyat uchun zarur bo'lgan harakatlar muhokama qilindi. *“Bugun eshitganlarim va muhokama qilganlarim meni hayratda qoldirdi, chunki shu paytgacha inson omili tufayli iqlim o‘zgarishining ko‘lamini tushunmaganman. O‘zbekiston global isishga olib keladigan issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirish bo‘yicha ulkan majburiyatlarni oldi. Biz, yurt fuqarolari bu majburiyatlarni bajarishga o‘z hissamizni qo‘shishimiz kerak. Tez orada men yosh tibbiyot xodimi bo‘laman va iqlim o‘zgarishi inson salomatligiga ta’sir qilishini to‘liq tushunaman”,* - deydi Dilnoza Sulaymonova, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti talabasi, uyushma a’zolaridan biri.

Loyiha taqdim etgan ekspertlik tajribasi natijasida yoshlarning iqlim o‘zgarishidan xabardorligini oshirish uchun ikkita onlayn ta’lim mahsuloti yaratildi. 2021-yilda loyihaning I bosqichi doirasida ishlab chiqilgan “Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha muzokaralar” birinchi onlayn kursi manfaatdor tomonlarning iqlim o‘zgarishi bo‘yicha muzokaralar, Kioto protokoli va Iqlim bo‘yicha Parij bitimi haqida xabardorligini oshirish uchun TK26 ga tayyorgarlik ko‘rishga qaratilgan.

2022-yilda loyihaning II bosqichi doirasida ishlab chiqilgan va ishga tushirilgan “Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha muzokaralar va TK26 natijalari” ikkinchi onlayn kursi TK26 ning mantiqiy davomi bo‘ldi va TK26 da erishilgan asosiy kelishuvlarning qisqacha mazmunini taqdim etdi, shuningdek, O'zbekiston majburiyatlari haqida yoshlarni tanishtirib chiqdi. Loyihaning har ikki bosqichida ham yoshlarning hududiy ishtiroki ta’minlandi va umummilliy tadbirlardan tashqari, talabalar mintaqaviy konferensiyalar va Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston yoshlari ishtirok etgan ma’rifiy tadbirlarda ham qatnashdilar.

Kurslar Moodle platformalarida ikkita universitet: Toshkent shahridagi TEAM universiteti va IDU universiteti uchun o‘tkazildi. Treningda ham sinxron, ham asinxron o‘qitish usullari hamda multimedia materiallari, jumladan audio, video, matn va interaktiv onlayn resurslardan foydalanildi. Ikkala ta'lim mahsulotining maqsadli auditoriyasi O'zbekistonlik talabalar edi. Kursga ro'yxatdan o'tishdan kursni yakunlashgacha bo'lgan talabaning hayotiy davri onlayn tarzda boshqarildi. Sinxronlashtirilgan tadbirlar Zoom yordamida tashkil etilgan va barcha ro'yxatdan o'tgan ishtirokchilar uchun mavjud. Birinchi kurs ingliz tilida o'tkazildi va iqlim o'zgarishi bo'yicha xalqaro hamda mintaqaviy muzokaralarga tayyorgarlik ko'rish uchun mo'ljallangan edi. Ikkinchi kurs uch tilda: ingliz, rus va o‘zbek tillarida mavjud bo‘lib, O‘zbekiston BMT IO”DK bo’yicha TK26 da hisobot bergan TK26 natijalari va majburiyatlari asosida faollashtirilgan harakatlarni o‘z ichiga oldi.



Kirish bo'limi

Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha muzokaralar uchun ingliz tilida jami 124 ta ro‘yxatga olish shakllari va Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha muzokaralar hamda TK26 natijalari uchun 298 ta ro‘yxatdan o‘tish shakllari to‘ldirildi, ulardan 81 tasi o‘zbek, 82 tasi rus va 135 tasi ingliz tilidagi kurs materiallari uchun ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Loyiha faoliyati doirasida yoshlar o‘rtasida so‘rov o‘tkazildi, unda O‘zbekistonning turli universitetlaridan yuzdan ortiq talabalar milliy va global darajada iqlim o‘zgarishi bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirdilar.

Yoshlar fikrini o'rganish bo'yicha so'rovnomani ishlab chiqishga yondashuv uning maqsadi - iqlim o'zgarishining global muammosiga qarshi milliy darajada kurashishga qaratilgan O'zbekiston iqlim kun tartibini amalga oshirishga yoshlarni jalb qilishdan iborat edi. Yoshlarning so‘rovnomaga bergan javoblari ularga o‘z fikr-mulohazalarini to‘plash va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar va harakatlardan xabardorlik darajasini aniqlash imkonini berdi, bunga yoshlar katta hissa qo‘shishi mumkin. So‘rov doirasida ishtirokchilar 2021-yilda Buyuk Britaniyaning Glazgo shahrida bo‘lib o‘tgan, jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha doiraviy konvensiyasi ishtirokchilarining

26-konferensiyasi natijalari bo‘yicha asosiy bilimlarga ham ega bo‘ldilar. Bundan tashqari, ushbu loyiha doirasida o‘tkazilgan seminarlar, davra suhbatlari va qayta tiklanadigan energetika joylariga o‘quv sayohatlarida ishtirok etish orqali yoshlarning iqlim o‘zgarishi haqidagi xabardorligi oshirildi.

Onlayn kurslar ishtirokchilari respublika va viloyat miqyosida yoshlarning qator tadbirlarida ham faol ishtirok etdilar. Loyihaning I bosqichida Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston talabalari ishtirokida o‘tkazilgan mintaqaviy konferensiya “Markaziy Osiyoning uchta davlati: Qirg‘iziston, Tojikiston va O‘zbekiston yoshlarining iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish, ularga moslashish, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi bayonoti” deb nomlangan qo‘shma yoshlar bayonotini ishlab chiqishga olib keldi. Bayonot uch mamlakat yoshlari tomonidan ma’qullandi va TK26 da taqdim etilishi uchun BMTTD va FCDOga rasman yuborildi.

Mintaqaviy yoshlar hamkorligi

Quyosh fizikasi instituti, elektr avtobus deposi, deyarli nol energiya sarflaydigan bino namoyishi, fotoelektr stansiyalari, milliy tarmoqqa elektr energiyasini ishlab chiqarish uchun fotoelektr panellar bilan jihozlangan xususiy uy kabi qayta tiklanadigan energiya inshootlariga yoshlar uchun o‘quv sayohatlari o‘tkazildi. O‘quv safarlarida jami 100 dan ortiq kishi qatnashdilar. Bundan tashqari, talabalar iqlim muammolarini hal qilishga qaratilgan bir qator tadbirlarda ishtirok etdilar, buning natijasida Yoshlar bayonoti O'zbekiston yoshlarining TK26 da e'lon qilingan MMBH2 ni amalga oshirishga qo'shadigan potentsial hissasi sifatida shakllantirildi.

Yoshlarning iqlim harakatida ishtirok etishining muvaffaqiyat tarixi Hisobotga ilovada keltirilgan.

Yoshlarning faolligi va xabardorligini oshirish hamda iqlim o‘zgarishi bo‘yicha bilimlari loyiha tomonidan ta’lim tadbirlari, o‘quv safarlari va konferensiyalarda yoshlar bilan suhbatlar o‘tkazish orqali tahlil qilindi. Hisobot 2022-yil may oyida yoshlar tomonidan ishlab chiqilgan va turli mavzuviy tadbirlarda qatnashgan 100 dan ortiq ishtirokchilar va “Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha muzokaralar va TK26 natijalari” onlayn kursini tamomlagan talabalar o‘rtasida so‘rov o‘tkazish orqali tasdiqlangan bayonotlarga asoslangan. Ushbu hisobotni tayyorlash va uni shakllantirishga yoshlarni jalb qilish ishtirokchi talabalarda umumiy tushunchani shakllantirishga, shuningdek, iqlim kun tartibi masalasini hal qilishda ularning shaxsiy hissasini aniqlashga yordam berdi.

Loyihaning 2022-yildagi II bosqichini amalga oshirish jarayonida yoshlarga yo‘naltirilgan tadbirlar guruhlarda ishlash, ratifikatsiya qilingan Parij bitimiga muvofiq qabul qilingan issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirish bo‘yicha O‘zbekiston tomonidan qabul qilingan ulkan iqlim maqsadlarga erishish uchun hissa qo‘shishi yoki amalga oshirishi mumkin bo‘lgan zarur chora-tadbirlar va harakatlarni muhokama qilish orqali O‘zbekiston yoshlari Bayonotini shakllantirish bilan yakunlandi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalariga o’quv sayohatlari

Xususiy tarmoq ishtiroki

Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish nafaqat hukumat dasturini, balki barcha davlat va xususiy manfaatdor tomonlarning, jumladan, jamoalarning alohida ishtirokini va individual darajada harakat qilishni talab qiladi. Loyiha ushbu guruhlarni turli tadbirlarda, salohiyatni oshirish sessiyalarida va tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirokini ta’minladi. Manfaatdor tomonlar o'zlarining tegishli guruhlarida, shuningdek, aralash muhitda barcha darajalarda iqlim o'zgarishi bo'yicha yaxlit va kelishilgan harakatlarga yo’naltirilgan jadallik yaratish uchun ishtirok etdilar.

Xususiy kompaniyalar iqlim o'zgarishi sohasida nisbatan yangi guruh sifatida jamiyat darajasida o'zgarishlarni amalga oshirish uchun eng yuqori salohiyatga ega. Markaziy Osiyoning uchta davlatida muqobil energiya manbalari va ularning istiqbollari hammaga ma’lum. Biroq, bozor mexanizmlarini qo'llash orqali ularning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga tegishli mamlakatlarning normativ-huquqiy bazasi biroz to'sqinlik qildi. Energiya narxlari davlat tomonidan subsidiyalanganligini hisobga olsak, quyosh, shamol va ozroq darajada gidroenergetika ishlab chiqarish kam daromadli hisoblanadi. So'nggi yillarda bu yondashuvda o'zgarishlar yuz berdi va xususiy tarmoq kompaniyalari, shuningdek, alohida uy xo'jaliklari ortiqcha elektr energiyasini tarmoqqa sotish imkoniyati bilan muqobil energiya ishlab chiqarishni o'rganish uchun rag'batlantirdilar.

Xususiy tarmoqni iqlim bo'yicha harakatlarga jalb qilish loyihaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, amalga oshirilayotgan loyihalarni ko'rib chiqish, hukumat qonunchiligi va bozor tahliliga asoslangan holda *“Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha milliy maqsadlarga erishishga hissa sifatida xususiy tarmoq uchun energiya samaradorligi va qayta tiklanadigan energiya loyihalarida ishtirok etish bo‘yicha tavsiyalar”* hujjati ishlab chiqildi. Tavsiyalar xususiy tarmoqqa yuborildi, hamda ularga iqlim loyihalarida faolroq va samaraliroq ishtirok etishga ko'maklashish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Issiqxona gazlarini inventarizatsiya qilish O‘zbekistonning BMT IO’DK bo‘yicha o‘z milliy majburiyatlarini bajarishining muhim qismidir. Bunday inventarizatsiya Parij bitimi maqsadlariga erishishni kuzatish, shuningdek, issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirish uchun eng katta salohiyatga ega milliy iqtisodiyot tarmoqlarini aniqlash imkonini beradi. 2022-yilning mart oyida xususiy tarmoq uchun seminar tashkil etildi, unda O‘zgidrometning iqlim bo‘yicha milliy ekspertlari IO’HEG tomonidan tasdiqlangan uslubiyat nima uchun mamlakatda IG tashlamalari holatini monitoring qilish va baholashda muhimligini tushuntirib berdilar.

“Xususiy tarmoq issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirishga hissa qo‘shishning ikki yo‘li mavjud - uskunalarni yangilash va o‘rmonlarni kengaytirish orqali uglerod yutilishini ko‘paytirish. Xususiy kompaniyalar energiya samaradorligini oshirish va issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirish, shuningdek, o'rmon xo'jaligini rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan ko'proq zamonaviy uskunalarni sotib olishlari kerak. Bu chora - tadbirlar nafaqat issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirishga, balki mamlakatdagi umumiy ekologik holatni yaxshilashga olib keladi, – dedi Energoaudit kompaniyasi direktori Zarif Garayev.



Tez o'sib borayotgan shaharlarda qattiq maishiy chiqindilarning ko'payishi aholi salomatligi va atrof-muhit uchun oqibatlari jamoatchilikda tashvish uyg'otadi. O‘zbekistonda qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirishning muhim tarkibiy qismi bo‘lishiga qaramay, chiqindilarni boshqarish hamon samarasiz davom etmoqda.

Davlat majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq davra suhbatlari va tadbirlar samaradorligini qo‘shimcha, alohida tahlil qilish ularning foydasini aniqlashga yordam berdi. Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi mutaxassisi tomonidan xususiy tarmoq vakillari ishtirokida o‘tkazilgan qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha davra suhbati bunday tahlilning yorqin misoli bo‘lishi mumkin, bu esa manfaatdor tomonlarning ishtiroki va tegishli muhokamada ularning fikr-mulohazalariga tayanadi. Ushbu tadqiqotlar davra suhbatlarini ilhomlantirdi, chunki ular tadqiqotlarning asosliligi va ishonchliligi, harakatlar va ularning uislubiyatini tasdiqlash, jamoatchilik xabardorligini oshirish, manfaatdor tomonlar o'rtasida umumiy tushunishni shakllantirish va harakatlarni sinxronlashtirish kabi tarkibiy qismlarga qiymat qo'shadi.

Aholi xabardorligini oshirish kampaniyasi va ommaviy axborot vositalari

Loyihaning har ikki bosqichida amalga oshirilgan xabardorlik kampaniyalari doirasida barcha loyiha faoliyati PR va axborot mahsulotlari orqali ijtimoiy tarmoqlar va milliy ommaviy axborot vositalarida yoritilgan: 613 nafar ishtirokchi (52% ayollar) bevosita ishtirok etgan 24 ta loyiha faoliyati internet resurslari, matbuot, youtube, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa axborot kanallari orqali yoritildi.

2022-yil aprel oyida O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining 1-kurs talabalari ochiq dars formatida iqlim ekspertlari bilan uchrashuv o’tkazdilar. Uchrashuv *“Tanqidiy fikrlash va dalillarni tekshirish” mavzusida olib borildi va iqlim o'zgarishi hamda uning insoniyat uchun oqibatlari bilan bog‘liq global muammolar haqida ma’lumot berdi. “So‘nggi bir necha yil mobaynida media maydonida iqlim o‘zgarishi ilmiy bilimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaydi, degan yolg‘on da’volarni o‘z ichiga olgan postlar va maqolalar soni ko‘paydi. Bunday materiallar mualliflari o’quvchi va tinglovchilar auditoriyasining tanqidiy fikrlash darajasining yetarli emasligidan foydalanadilar. Shu bois jurnalistika fakulteti talabalari uydirmalarga barham berish va ma’lumotlarni to‘g‘ri taqdim etish uchun iqlim o‘zgarishi jarayonlari va ularning oqibatlaridan xabardor bo‘lishlari muhim”,* — deya xulosa qildi universitet o‘qituvchisi, jurnalist Lola Islomova.

2022-yil may oyida O‘zgidromet iqlimshunoslari Café Scientifique formatida OAV vakillari bilan Farg’ona viloyatida uchrashdilar. Jurnalistlar iqlim o'zgarishi global muammosini muhokama qildilar, ekologik muammolarni hal qilishning zaruriy shartlari, asosiy sabablari va zarur choralari, iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish va ularga moslashish bo'yicha mintaqaviy va milliy darajada amalga oshirilishi mumkin bo'lgan sa'y-harakatlar haqida ma'lumot oldilar.

Shuningdek, Buxoroda “Ijtimoiy ahamiyatga ega muammolarni yoritishda nostandart yechimlar va vositalar” mavzusida trening o‘tkazildi, unda taniqli blogerlar va jurnalistlar ijtimoiy tarmoqlarda dolzarb mavzularni yoritish va targ‘ib qilish bo‘yicha o‘z mahoratlari bilan o‘rtoqlashdilar.

Taqdimotning soddaligi, aniq va oddiy vizual qator, o'z nuqtai nazaringizni ifoda etishingiz mumkin bo'lgan joy - bu blog yuritish. Bugungi kunda bloggerlarning ta'siri mislsiz darajada yuqori. Blog yuritish har doim shaxsiy tanlov va shaxsiy mas'uliyatdir. Qarshi, Samarqand va Buxorodan 12 nafar blogger ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni, jumladan, iqlim o‘zgarishini professional yoritish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lish istagida birlashdilar.

O‘zgidrometning iqlim eksperti O‘zbekiston duch kelayotgan global, mintaqaviy va mahalliy darajadagi iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq muammolar haqida gapirdi. O‘zbekistonda iqlim qurg‘oqchiligining kuchayishi va suv tanqisligining o’sib borishi haqida dalillar mavjud va agar resurslarni tejash bo‘yicha shoshilinch choralar ko‘rilmasa, mamlakat tez-tez uchraydigan va kuchli issiqlik to‘lqinlari va toza ichimlik suvi yetishmasligi natijasida sog‘liq uchun xavf-xatarlarga uchraydi.

“Bugun biz iqlim o‘zgarishi oqibatlarining guvohi bo‘ldik – Buxoro va O‘zbekistonning boshqa shaharlarida chang bo‘roni bo’lib o‘tdi. Bu qurg'oqchilik va boshqa xavfli gidrometeorologik hodisalar, jumladan, sel, suv toshqinlari, ko'chkilar, yomg'irlar, shamollar va hokazolarni keltirib chiqaradigan iqlim o'zgarishining natijasidir. Bloggerlar ushbu shubhasiz muhim mavzuni yoritishlari juda muhim, shunda odamlar o'z fikrlarini o'zgartiradilar va suv-energetika resurslariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni boshlaydilar”, - dedi Shaxnoza Sultonova, samarqandlik yosh blogger.

Loyiha faoliyati davomida olingan bilimlarni hujjatlashtirish uchun ingliz, o‘zbek va rus tillarida nashrlar tayyorlandi, ular BMTTDning O‘zbekistondagi vakolatxonasi veb-saytida va mintaqaviy veb-platformasida joylashtirildi, shuningdek, milliy hamkorlar va loyiha benefitsiarlariga taqdim etildi:

- O‘zbekiston va Qirg‘izistonda issiqxona gazlari tashlamalarini monitoring qilish, hisobot berish va tekshirish (MHT) tizimini ishlab chiqish bo‘yicha tavsiyalar
- O‘zbekiston iqlimi va iqtisodiyotini hisobga olgan holda karbonat angidrid gazi tashlamalarini hisoblashning tajriba uslubiyati
- O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda xususiy tarmoqning hissasi
- O‘zbekiston yoshlarini iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha harakatlardan xabardor qilish va yoshlarning iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashga qo‘shayotgan hissasi haqidagi fikrlarini bayon qilish.

Gender namoyondaligi

Gender tengligi va paritet tamoyillari loyihani amalga oshirishda yordam berdi. Barcha tadqiqotlar/siyosatga oid hujjat eslatmalari ishlab chiqilgan va loyiha tomonidan gender bo'yicha taqsimlangan ma'lumotlar to'planishini ta'minlash va genderga mos siyosat ishlab chiqishni rag'batlantirish uchun samarali choralar ko'rilgan.

Loyiha doirasida amalga oshirilgan barcha tadbirlarda gender vakilligiga alohida e'tibor qaratildi va loyiha faoliyatida ikkala jins vakillarining munosib ishtirok etishi ta'minlandi. Bundan tashqari, marketing kampaniyasi o'z sa'y-harakatlarini hamjamiyatlarga murojaat qilishga va qiziqqan ayollar xabardor bo'lishiga va loyihada ishtirok etish hamda uning natijalaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishiga ishonch hosil qilishga qaratilgan.

2022-yilning birinchi va ikkinchi choraklari davomida 323 nafar ayollar (barcha ishtirokchilarning 52 foizi) va 290 nafar (jami ishtirokchilarning 48 foizi) erkaklar ishtirokida 24 ta tadbir tashkil etildi. Talabalar soniga mo‘ljallangan yoshlarning onlayn ta’lim faoliyatida I bosqichda 46% talaba qizlar va II bosqichda 36% ishtirok etdilar. Loyihaning II bosqichi doirasida an'anaviy ravishda erkak talabalar ustunlik qiladigan texnik oliy o'quv yurtlari talabalarini jalb qilish orqali ko'proq erkak talabalar qatnashdilar.

Biroq, loyiha jamoasi talaba qizlarni barcha tadbirlarda ishtirok etishga undadi. Oflayn ta’lim tadbirlarida ayollarning faol ishtirokini rag‘batlantirish orqali gender muvozanati masalasi ko‘rib chiqildi va yoshlar uchun oflayn rejimda tashkil etilgan 10 ta tadbirda talaba qizlarning ishtiroki 40% ni tashkil etdi.

Gender qismi ham loyiha doirasida olib borilgan tadqiqot ishlari va media kampaniyasi bilan chambarchas bog'landi. Hisobotlarda gender masalalari bo'yicha tavsiyalar ta'kidlangan va ommaviy axborot vositalarida kampaniyalar ayollar hamjamiyatlariga loyiha tadbirlari va faoliyati haqida ma'lumot tarqatishga qaratilgan. U loyihaning iqlimga oid dalillarga asoslangan va genderga mos bilim mahsulotlarini yaratish va'dasini bajardi, hamda tengsizlik va hukumat organlarining har qanday nomutanosibligiga javob berish uchun hukumat amaldorlari, fuqarolik jamiyati, akademik institutlarni xabardor qilish va salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynadi.

Loyihani amalga oshirishdan olingan saboqlar

Loyihani amalga oshirish natijasida 2022-yil 29-iyun kuni bo‘lib o‘tgan yakuniy loyiha seminari davomida loyiha benefitsiarlarining fikr-mulohazalari asosida tuzilgan yangi loyihalar va keyingi harakatlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi mumkin bo‘lgan bir qator saboqlar olindi.

Loyihaning I bosqichi (2021-yil) yoshlarni loyiha faoliyatiga jalb etish muvaffaqiyatli va ko‘rgazmali o‘tganini ko‘rsatdi. Yoshlarga qaratilgan tadbirlar katta muvaffaqiyatga erishdi va yoshlar loyihaning II bosqichida (2022-yil) iqlim o‘zgarishi bo‘yicha harakatlarni yanada kengroq qo‘llab-quvvatlashda ishtirok etish uchun asosiy guruh sifatida belgilandi. Yoshlar iqlim bo'yicha kun tartibida faol, ular o'z ovozlarini eshitishni va iqlim bo'yicha milliy harakatlar rejalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etishni xohlashadi. Yoshlarni jalb qilish qismi iqlim o‘zgarishi oqibatlari haqida xabardorlikni oshirish va iqlim o‘zgarishi bilan bog’liq harakatlar salohiyatini oshirishga qaratilgan turli tadbirlar va ta’lim tadbirlarini o‘z ichiga olgan. Loyihaning birinchi bosqichida ingliz tilida, ikkinchi bosqichda esa ingliz, o‘zbek va rus tillarida tadbirlar va o‘quv materiallari ishlab chiqildi.

Yoshlarning ta'lim tadbirlarida ishtirok etishida uch tildan foydalanish yanada inklyuziv bo'lib, yoshlarning yanada samarali ishtirokini ta'minlaydi. Talabalar o'zlari tanlagan tilda bayonotlar tayyorladilar va hujjatlar ustida ishladilar, hamda taqdimotlar, bayonotlar va muhokamalarda qatnashish kabi materiallar uchun til tanlash bo'yicha ijobiy fikr bildirdilar. “Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha muzokaralar va TK26 natijalari” onlayn kursi uch tilda mavjud edi, garchi talabalarning aksariyati ingliz tilini tanlagan bo‘lsa-da, o‘zbek va rus tillarining uyg‘unligi talabalarning 50% dan ortig‘i kursda o’ziga qulay tilni tanlash imkonidan foydalanishni ma’qul ko‘rishini ko‘rsatdi.

Loyihaning I bosqichi akademik va fuqarolik jamiyati tashkilotlari, diplomatik korpus, ommaviy axborot vositalari va yoshlar ishtirokida kengroq muhokamalar uchun resurslar hamda platformalarni taqdim etish orqali har bir mamlakatda MMBHni qayta ko‘rib chiqish jarayonida muhim ahamiyatga ega edi. Taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash TK26 da e'lon qilingan ulug’vor, izchil va shu bilan birga erishish mumkin bo'lgan MMBHlarni shakllantirishga yordam berdi.

O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotning har bir AQSH dollariga to‘g‘ri keladigan energiya xarajatlari bo‘yicha iqtisodiyoti energiyani eng ko‘p talab qiladigan davlatlardan biri bo‘lib qolmoqda, bu

nafaqat iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, balki iqtisodiy kun tartibini hal qilish uchun ham shoshilinch choralar ko‘rishni talab qiladi. Toza energiyadan foydalanish, ayniqsa, Markaziy Osiyoning eng zich joylashgan hududlari hukumatning diqqat markazida bo‘ldi va uning MMBH bilan uyg‘unlashuvi kuchli ichki majburiyatlarni shakllantirishga yordam berdi.

MMBH bo’yicha muloqot va BMT I’ODK muzokaralari faoliyatidagi ishtiroki uch mamlakatning xalqaro va mintaqaviy darajada muzokaralar olib borish salohiyatini rivojlantirish zarurligini ta'kidladi. Loyiha Markaziy Osiyo mamlakatlarida iqlim diplomatiyasi salohiyatini oshirish uchun asos yaratdi va bu benefitsiarlar tomonidan yuqori baholandi. Olingan saboqlardan biri diplomatlarning doimiy ravishda va eng so’nggi axborot bilan ta’minlash hamda mintaqaviy iqlim kun tartibini muhokama qilish uchun platformalar yaratish bo'ldi.

Loyiha II bosqichni amalga oshirish orqali uch mamlakat o‘rtasida mintaqaviy hamkorlik va almashuv sa’y-harakatlarini yanada jadallashtirdi. Loyihaning yutuqlarini yanada mustahkamlash mamlakatlarga o'z sa'y-harakatlarini yaxshiroq moslashtirishga, mintaqaviy o’zgarish sur’atlarini tushunishga va mintaqaviy hamda xalqaro muzokaralarda yanada samarali ishtirok etishga yordam beradi, ya’ni Parij bitimida belgilangan maqsadlarga samarali hissa qo‘shish orqali milliy ustuvorliklarni hal qilish. Ushbu tajribadan kelib chiqqan tavsiya shundan iboratki, kelgusida iqlim siyosati salohiyatini oshirish bo'yicha muntazam tadbirlar rejalashtirilishi kerak. MMBHni amalga oshirish bosqichida bu manfaatdor tomonlarning keng doirasi bilan hamkorlikni yaxshilashga, iqlim bo'yicha ma'lumot va shaffoflikni ta'minlash uchun asoslarni ishlab chiqishga va xususiy tarmoq, ayollar va yoshlar tashkilotlari kabi yangi hamkorlar bilan hamkorlik qilishning yangi usullarini aniqlashga yordam beradi.

Loyiha diplomatik salohiyatni oshirish bilan bir qatorda, loyiha texnik salohiyatni oshirishni qo'llab-quvvatladi va juda muvaffaqiyatli bo'ldi. Mintaqaviy texnik seminar uch mamlakatning texnik mutaxassislarini o‘rganish va fikr almashish, shuningdek, taniqli muassasa va tashkilotlarning xalqaro ma’ruzachilarning taqdimotlarini tinglash uchun ajoyib imkoniyat bo‘ldi. Bu asosiy o'rganish imkoniyati bo'ldi va texnik xodimlarni birlashtirgan mintaqaviy darajadagi tadbirlarning afzalliklarini oshirib, aniq natijalar berdi. Bunday tadbirlar uch mamlakatning sa'y-harakatlarini yaxshiroq birlashtiradi va manfaatdor tomonlarga mintaqaviy hamda xalqaro tarmoqlarni qurishda yordam beradi, shuningdek, o'rganish va fikr almashish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni beradi.

Yana bir muhim saboq, milliy va xalqaro tadqiqot guruhlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalarini ko‘rib chiqish va fikr-mulohaza yuritish orqali xususiy hamda davlat hamkorlari, shuningdek, vazirliklarni jalb qilish orqali inklyuzivlik va shaffoflikka o‘tish bo‘ldi. Fikr-mulohaza sessiyalarida manfaatdor tomonlar natijalar bo'yicha fikr bildirish, ma'lumotlarni to'plash va tadqiqot savollarini shakllantirish nuqtai nazaridan tadqiqot guruhlariga rahbarlik qilish imkoniga ega bo'ldilar. Bu tadqiqot natijalarini ko'proq talabga asoslangan qildi va ularning natijalaridan barcha manfaatdor tomonlar uchun foydalanishga imkon berdi.

Tadqiqotga yondashuv ko'p qirrali bo'lib, manfaatdor tomonlar uch darajada jalb qilindi. Yashil rivojlanish va muqobil energiya ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha umumiy qarashlar bayonotlariga mujassamlantirilgan holda manfaatdor tomonlar guruhlaridan fikr va tavsiyalarni to'plash orqali mustaqil ravishda o’tkazildi. Manfaatdor tomonlar guruhlarida jamoaviy fikrlari to'plandi hamda muammolar va ularni yechimlari muhokama qilindi. Bunga asosan tadbirlar va davra suhbatlari orqali erishildi. Va nihoyat, yashil rivojlanishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha umumiy qarash va yondashuvlarni shakllantirish uchun davlat va xususiy tarmoqlar, hukumat vazirliklari va idoralari, ilmiy hamjamiyatlari vakillarini jalb etgan holda kengroq manfaatdor tomonlar guruhlarida ishlar olib borildi. Kengroq tadbirlar fikr-mulohazalar, mavzuviy seminarlar va davra suhbatlari shaklida o'tkazildi.

Loyiha tanlangan yondashuvning samaradorligini ko'rsatdi va uni loyihani amalga oshirishdan olingan saboqlardan biri deb hisoblash mumkin.

Loyiha natijalarining barqarorligi va ularning ta'siri

Kengaytirilgan MMBHlarni ishlab chiqishda uch mamlakatning manfaatdor tomonlariga berilgan yordam milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi. Uch mamlakat o'z majburiyatlarini keskin oshirdi va MMBHlarning milliy ustuvorliklarga mos kelishi loyiha yakunlangandan keyingi yillarda majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydi. Keng miqyosdagi manfaatdor tomonlarning ishtiroki harakatlar asoslarini ta'minlashning asosiy tarkibiy qismi bo'ldi hamda uning davlat va xususiy ishtirokchilarning chinakam inklyuziv tabiati xavfini kamaytirish uchun juda sog'lom muvozanatni ta'minladi, chunki xususiy kompaniyalar iqlim kun tartibini hal qilish bo'yicha tashabbuslarga qaratilgan umummilliy davlat-xususiy sherikchilikda ishtirok etishlari mumkin.

Tavsiyalarni ishlab chiqishda tadqiqotga asoslangan yondashuv taklif etilayotgan harakatlarning barqarorligiga ham hissa qo'shdi, chunki u mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlagan holda iqlim xavflarini bartaraf etish bo'yicha harakatlar ta'sirining xolis dalillarini taqdim etdi. O‘zbekiston va Qirg‘izistonning MHT uslubiyatlariga nisbatan yondashuvlarini bir-biriga moslashtirish, iqlim o‘zgarishining energiya ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi va kengroq iqtisodiy ishlab chiqarishga ta’sirini bashorat qilish milliy

darajada amalga oshirilayotgan alohida harakatlar Markaziy Osiyo davlatlaridagi mintaqaviy muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Yoshlarning faolligi hamda til, jins, o‘rganish uslublari va mintaqaviy farqlar nuqtai nazaridan ta’limga inklyuziv yondashuv loyihaga yoshlarni iqlim masalalari bo‘yicha kun tartibiga jalb qilishning keng qamrovli uslubiyatini ishlab chiqishga yordam berdi. Onlayn salohiyatni oshirish kurslarini ishlab chiqishda qo'llaniladigan innovatsion yondashuv manfaatdor tashkilotlar va boshqa loyihalar tomonidan kengaytirilishi mumkin va barcha manfaatdor tomonlarning salohiyatini oshirish uchun iqlimga oid muzokaralar bo'yicha to'liq miqyosli kurslarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Loyiha mintaqa bo'ylab talabalar tarmog'ini yaratishga muvaffaq bo'ldi va ularning iqlim bo'yicha harakatlarda ishtiroki yanada yaxshi va barqaror natijalarga olib kelishi mumkin. Ma'lum bo'lishicha, yoshlarda ko'pincha muqobil energiya sohasida amaliy tajriba yetishmaydi va mavzuli o'quv sayohatlarini tashkil etish loyihaga ushbu muammoni hal qilishga yordam berdi. Bundan tashqari, talabalarning mintaqaviy ishtiroki uch mamlakat yoshlari qarashlarining yaqinligini ko'rsatdi va ularning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy iqlim muammolarini hal qilishda keyingi ishtiroki uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Milliy muzokaralar guruhlari vakillarining salohiyatini oshirish uch davlatning BMT IO’DK bo'yicha xalqaro muzokaralarda faol ishtirok etishiga yordam berdi. TK26 muzokaralar olib boradigan guruhlarni tayyorlash qanday qilib butunlay boshqa darajadagi hamkorlikka olib kelishi mumkinligiga yorqin misol bo'ldi. TK26 da nafaqat ulug’vor MMBHlar yuqori baholandi, jamoalarning mavzuli tadbirlarda ishtirok etishi uch mamlakat iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash bo‘yicha global sa’y-harakatlarning faol ishtirokchisi ekanligini ko‘rsatdi. Salohiyatni oshirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar TK darajasidagi muzokaralarda, shuningdek, texnik va amalga oshirish masalalarini hal qilish uchun TKlar o'rtasida uchrashadigan turli ishchi guruhlarda uch mamlakatning kelajakdagi ishtirokiga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishi kutilmoqda.

Ilova
Muvaffaqiyat misoli: Yoshlarni hayot davomida iqlim o'zgarishi bo'yicha harakatlarga jalb qilish

Iqlim o‘zgarishi O‘zbekiston yoshlari uchun notanish mavzu emas. Orol dengizi halokati va mamlakatning quyosh energiyasi ishlab chiqarish salohiyati namunaviy maktab o‘quv dasturiga kiritilgan. Vaholanki, talabalarning aksariyati Orolbo‘yida hech qachon bo‘lmagan va quyosh energiyasi moslamalarini ko‘rmagan. Ko'pchilik iqlim o'zgarishiga qarshi kurash bo'yicha global sa'y-harakatlardan bexabar, bu esa yoshlarga mavzuga nisbatan uzoqni ko'ra olmaslik va faqat nazariy tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi xolos. Natijada, yosh avlodlar o'z jamoalarida va undan tashqarida iqlim o'zgarishiga qarshi choralar ko'rishda ikkilanishadi. O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga birlashishi va issiqxona gazlari tashlamalarini kamaytirish bo‘yicha ulkan majburiyatlarni olishga bo‘lgan siyosiy irodasi sharoitida yoshlarning ishtiroki va ularning iqlimga qarshi kurashdagi hissasi juda muhim. BMTTD/FCDOning “Markaziy Osiyoda iqlim xavfsizligi bo‘yicha siyosiy harakat, II bosqich” loyihasi muammoni hal qilish bo‘yicha yondashuvni taklif qildi va iqlim kun tartibida yoshlar ishtiroki namunasini ko‘rsatdi.

Taklif etilgan yechim iqlim o'zgarishi bo'yicha yoshlar salohiyatini oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun qiziqarli ta'lim va ta'lim faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Loyiha doirasida ishlab chiqilgan iqlim o‘zgarishi bo‘yicha xalqaro muzokaralar va TK26 natijalari

bilan bog‘liq ikkita ta’lim mahsulotida O‘zbekistonning 30 ta oliy o‘quv yurtidan 420 dan ortiq talaba ishtirok etdi. Zamonaviy va innovatsion pedagogik yondashuv onlayn ta'lim mahsulotlariga kiritilgan va forumlar, blog yozuvlari, viktorinalar, aks ettiruvchi maqolachalar taqdimotlari, mutaxassislar bilan sinxron sessiyalar va multimedia materiallari kabi turli interfaol usullar orqali talabalar tajribasini boyitdi. Bular videolar, intervyular, haqiqiy hujjatlar va ijtimoiy media kanallariga kirish. Ta’lim muassasalarining faol ishtirokchilari Tojikiston va Qirg‘izistondan kelgan kursdoshlari bilan birlashdilar. Hamkorlikning cho‘qqisi mintaqaviy konferensiya bo‘lib, unda talabalar uch mamlakatda “Suv, oziq-ovqat va energiya xavfsizligi” qo‘shma bayonoti bilan chiqishdi. Ularning istiqbolli bayonoti BMTTDga yetib bordi va Glazgodagi TK26 da tarqatilgan hujjatlar portfoliosining bir qismiga aylandi. Uch mamlakat duch kelgan turli xil sharoit va muammolarga qaramay, talabalar muammolar haqida umumiy fikrni shakllantirdilar. O‘zbekistonlik talaba ishtirokchi Baxtigul Raimqulova shunday dedi: *“Ushbu tadbirni tashkil qilish menga haqiqatan ham biz bir-biri bilan juda bog‘langan mintaqaga yashayotganimizni tushunishga yordam berdi. Konferensiyada rus va ingliz tillaridan foydalanish o‘ziga xos xalqaro muhitni yaratdi, biroq tilimiz va kelib chiqishimiz farqiga qaramay, qarashlarimizda mushtarak tomonlarni topish va ularni qo‘shma bayonotda ifodalash tabiiy edi”.*

Loyihaning ikkinchi bosqichida amaliy va tajriba o‘rganish yondashuvlari kuchaytirildi. Mintaqaviy tarmoq va interaktiv ta’lim tadbirlari, jumladan, yoshlarga iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda ishtirok etish imkoniyatlari va global sa’y-harakatlar haqida ma’lumot olish imkonini bergan konferensiyalar va talabalar suhbatlari bilan bir qatorda, o‘quv safari qismi joriy etildi. Talabalar ijtimoiy infratuzilma inshootlari, ilmiy markazlar, muqobil energiya ishlab chiqarish sohasida faoliyat yuritayotgan xususiy korxonalarga bordilar. Ekskursiyalar talabalarga fotoelektr stansiyalari, shamol stansiyalari, uglerod neytralligiga yaqin energiya binolari, elektr avtobus infratuzilmasi va tadqiqot infratuzilmasi, jumladan, Toshkent viloyatidagi “Quyosh fizikasi” noyob inshootini his qilish va ularni bevosita ko’rish imkoniyatini berdi. Ayniqsa, xususiy tarmoq korxonalari va xo‘jaliklariga tashriflar talabalar

tomonidan yaxshi kutib olindi. Ular bozorda ham uy-joy, ham sanoatda foydalanish uchun texnologiyalar qatori, texnologiyalarning narxi va ishlab chiqarilgan elektr energiyasini tarmoqqa sotish qonuniyligi bilan tanishdilar.

Loyihani amalga oshirish jarayonida erishilgan natija yoshlarning ishonchini oshirish, ularga muqobil energiya inshootlarida amaliy tajriba berish masalalarini hal etishdan ham kengayib ketdi. Faoliyatlarda ishtirok etish orqali talabalar mahalliy va mintaqaviy darajadagi tarmoqlarni qurish va mintaqaviy darajadagi xalqaro muzokaralarda qatnashish imkoniyatiga ega bo'lishdi. O‘zbekistonda yaratilgan tarmoqda hozirda 512 nafar talaba ishtirok etmoqda. Toshkent davlat aloqa universiteti talabasi Timur Badretdinov shunday dedi: *“Men uy xo‘jaliklarida ishlab chiqarilgan elektr energiyasini tarmoqqa sotish juda foydali ekanligini angladim. Universitetda temir yo'l transporti bo'yicha fakultetda o'qiganim sababli, men lokomotivlar energiyani tarmoqqa qaytarishi mumkin bo'lgan energiyani qayta tiklash uchun juda ko'p imkoniyatlar mavjudligini bilaman, ammo hozir bu faqat muhokama qilinmoqda. Men bu mavzuni albatta davom ettiraman, chunki u temir yo‘l transportining energiya samaradorligini oshirishi mumkin”*. Hamkorlik qilayotgan talabalar endi muqobil energiya ishlab chiqarishni kelajakdagi rivojlanish emas, balki hozirgi voqelik deb bilishadi. Toshkent davlat arxitektura instituti talabasi Doniyor To’rajonov elektrobus zavodiga tashrif chog‘ida shunday ta’kidladi: “Elektrobuslar qazib olinadigan yoqilg‘i ishlatadigan avtobuslariga qaraganda 9 baravar samaraliroq bo‘lishi mumkin va ularga texnik xizmat ko‘rsatish nafaqat samarali, balki shahar muhitiga ham ancha mos ekanligini isbotladi. Hozirgi amaliyotga nisbatan transportni ko‘kalamzorlashtirish elektron transport vositalariga qaratilishi kerak, deb hisoblayman”.

Zamonaviy pedagogikadan foydalangan holda, talabalarni respublika va viloyat miqyosida turli tadbirlarga jalb etish kelajak uchun katta imkoniyatlarni ko‘rsatdi. Talaba haqiqatan ham yashil texnologiyalarga nisbatan tafakkuri va munosabatini o‘zgartiradi, ularni kelajakning vaqtinchalik toifasi sifatida ko‘rishdan bugungi kun zaruriyatiga o‘tadi. Ishlab chiqilgan yondashuv yoshlarni jalb qilish uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etdi va uning keyingi amaliyoti iqlim muammosini hal qilishda yoshlar ishtirokini oshirishga yordam beradi..